

PREPARATINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQARILISH SHAKLI

Tabiiy o'simliklar va ularni mevasidan tarkib topgan, o'ziga xos hidga ega tabletkalar – shakli dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali polietilen flakonda yoki blisterda qodoqlangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o'ramlar, (2) – qo'llash bo'yicha yo'riqnoma.

Tarkibi: Yakka poyali ortiliya (*Orthília secúnda* L.), Tog' rayhon – ona urug' (*Oríganum vulgáre* L.), Na'matak mevasi (*Frúctus Rosáe*), Dorivor moychechak (*Matricária chamomílla* L.), Dorivor kalendula (*Caléndula officínalis* L.), Oddiy jag'-jag' (*Capsélla búrsa-pastóris* L), Bo'znoch (*Helichrýsum arenárium*).

PREPARATNING TA'SIRI

Hayz davrini tartibga soluvchi, o'simliklardan tayyorlangan kompleks vosita. Tuxumdon to'qimalarini va endometriy mushaklarini mustahkamlash orqali klimaksdan keyingi qon ketishlarni bartaraf etishga yordam beradi. Yallig'lanish va bakteriyalarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Organizmdagi garmonal holatni me'yorga keltirishi va nazoratda saqlab turishi sababli hayzoldi sindromlarida yaxshi yordam beradi. Immunitet (organizmning himoya qobiliyati) ni tiklaydi, moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

QO'LLANILISHI

- Dismenoreya, amenoreya, gipermenoreya (kompleks terapiya tarkibida);
- Hayzoldi sindromi;
- Qinning anomal ajralmalarida;
- Klimaksdan keyingi qon ketishida;
- Bachadon bo'yni to'qimalaridagi torayish tufayli qindan oq ajralmalar kelishida (Leykoreya);
- Hayzning ko'p kelishi (Menorragiya);
- Bachadondan hayz sikli bilan bog'liq bo'lmagan qon ketishlarda (Metrorragiya).

QO'LLASH MUMKIN BO'LMAGAN HOLATLAR

Preparat bir yoki bir nechta tarkibiy qismlariga yuqori sezuvchanlik, homiladorlik, laktatsiya davri.

QO'LLASH USULI VA DOZALARI

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

Kuniga 3 mahal 2 tabletkadan (ovqatdan oldin).

Davolash kursi 15 kun.

Zarurat tug'ilganda davolash kursi qaytariladi.

NOJO'YA TA'SIRI

Odatda nojo'ya ta'siri yuzaga kelmaydi, ko'pgina holatlarda preparatning yaxshi ta'siri kuzatilgan. Preparatning ba'zi tarkibiy ingrediylariga organizm sezuvchanlikligi yuqori bo'lgan holatlarda, allergik reaksiyalar va oshqozon-ichak traktidagi dispepsik buzilishlar

kuzatilishi mumkin.

Preparatga yuqori sezuvchanlik holati kuzatilsa, preparatni qo'llashdan to'xtash kerak.

PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Nomagissan preparatini me'yordan ortiq qabul qilinishi natijasida paydo bo'ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo'llanilganda nojo'ya ta'siri kuzatilmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATLARI

Preparat bolalar qo'li yetmaydigan, yorug'likdan himoyalangan joyda +2°S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlash muddati – 2 yil.

Manzil:1000011,Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz